


2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot*

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2020-yil yanvar oyida Jizzax viloyatida 280 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 385 taga kamdir.



* fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 18 324 taga yetib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,6 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 21,4 % savdo, 16,2 % sanoat, 14,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 10,4 % qurilish, 6,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,4 % tashish va saqlash, 1,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa hamda 24,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-fevral holatiga ko'ra, %)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

	Umumiy soni, birlik		01.02.2020 yil	
	01.02.2019 yil	01.02.2020 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	15 576	18 324	117,6	100,0
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2 336	2 730	116,9	14,9
Sanoat	2 471	2 965	120,0	16,2
Qurilish	1 451	1 908	131,5	10,4
Savdo	3 183	3 914	123,0	21,4
Tashish va saqlash	546	620	113,6	3,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 036	1 195	115,3	6,5
Axborot va aloqa	192	210	109,4	1,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	212	255	120,3	1,4
Boshqa turlari	4 149	4 527	109,1	24,7

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Jizzax shahri (5 608 ta), Sharof Rashidov (3 035 ta), Zomin (1 504 ta), G'allaorol (1 416 ta) va Forish (1 274 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiobod (401 ta), Zafarobod (526 ta) va Arnasoy (564 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-fevral holatiga ko'ra)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 17 457 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2 601 taga (17,5 %) o'sgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-fevral holatiga ko'ra, %)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Jizzax shahri (5 329 ta), Sharof Rashidov (2 943 ta), Zomin (1 433 ta), G'allaorol (1 388 ta) va Forish (1 222 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiobod (374 ta), Zafarobod (458 ta) hamda Arnasoy (561 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni**

(2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar oyida, birlikda)


2020-yil yanvar oyida 280 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019-yilning shu davriga nisbatan 385 taga kamdir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning
yillar kesimida soni**
(yanvar oyida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (74 ta), Sharof Rashidov (49 ta), G'allaorol (24 ta), Zomin (24 ta) va Zarbdor (21 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiobod (4 ta), Arnasoy (5 ta), Mirzacho'l (6 ta), Paxtakor (9 ta), Do'stlik (10 ta) hamda Zafarobod (13 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning
hududlar bo'yicha soni**
(yanvar oyida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar oyida)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (100 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (53 ta), qurilish (38 ta), sanoat (33 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohalarida (19 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (3 ta), axborot va aloqa (4 ta), tashish va saqlash (6 ta) hamda boshqa faoliyat turlari (24 ta) hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra 14 320 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4 213 ta, oilaviy korxonalar – 748 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 9 013 ta va boshqalar 346 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(1-fevral holatiga ko'ra)

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra 9 346 tani tashkil etib, ulardan 9 013 tasi yoki 96,4 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2 125 taga yoki 29,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar oyida Jizzax viloyatida 218 taga yaqin mas'uliyati cheklangan jamiyatlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 50,3 % ga kamdir.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

	01.02.2020 yil		2020-yil yanvar oyida
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Jami	9 346	9 013	218
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 613	1 529	39
Sanoat	1 802	1 743	25
Qurilish	1 394	1 354	35
Savdo	2 401	2 326	78
Tashish va saqlash	468	453	6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	544	523	14
Axborot va aloqa	97	93	4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	120	118	1
Boshqa turlari	907	874	16

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning jami sonidagi eng ko'p ulushi savdoda 25,8 %, sanoatda 19,3 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 17,0 %, qurilishda 15,0 % va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 5,8 % ga to'g'ri keladi. Nisbatan kam ulushi esa axborot va aloqada 1,0 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1,3 %, tashish va saqlashda 5,0 % va boshqa faoliyat turlarida 9,8 % ga to'g'ri kelgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(hududlar kesimida 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni
(2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 14 273 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2019-yil 1-fevral holatiga qaraganda 20,9 % ga oshgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(hududlar kesimida 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

	Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	shundan:	
		kichik korxonalar	mikrofirmalar
Jizzax viloyati	14 273	605	13 668
Jizzax shahri	4 594	252	4 342
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	427	9	418
Baxmal	735	19	716
G'allaorol	1 121	50	1 071
Sharof Rashidov	2 594	117	2 477
Do'stlik	514	19	495
Zomin	1 126	40	1 086
Zarbdor	601	19	582
Zafarobod	315	7	308
Mirzacho'l	438	19	419
Paxtakor	500	32	468
Forish	1 023	14	1 009
Yangiobod	285	8	277

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi
(hududlar kesimida 1-fevral holatiga ko'ra, %)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4 594 tasi (32,2 %) Jizzax shahri, 2 594 tasi (18,2 %) Sharof Rashidov, 1 126 tasi (7,9 %) Zomin hamda 1 121 tasi G'allaorol (7,9 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 14 273 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3 698 tasi (25,9 %) – savdo, 2 798 tasi (19,6 %) - sanoat, 2 534 tasi (17,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1 838 tasi (12,9 %) - qurilish, 1 114 tasi (7,8 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 590 tasi (4,1 %) - tashish va saqlash, 171 tasi (1,2 %) – axborot va aloqa, 167 tasi (1,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi va 1 363 tasi (9,5 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-fevral holatiga ko'ra, %)



2020-yil yanvar oyida 273 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 369 taga kamdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahri (71 ta), Sharof Rashidov (49 ta), Forish (27 ta), G'allaorol va Zomin tumanlari (23 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Yangiobod (4 ta), Arnasoy (5), Mirzacho'l (6 ta) hamda Paxtakor (9 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar oyi holatiga, birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (100 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (52 ta), qurilishda (38 ta) va sanoatda (33 ta) tashkil etilgan. Eng kamisi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (2 ta), axborot va aloqada (4 ta) hamda tashish va saqlashda (6 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar

(2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra 796 tani tashkil etib, ulardan 748 tasi yoki 94,0 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 38,9 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


Oilaviy korxonalarining soni
(hududlar kesimida 1-fevral holatiga, birlikda)

	01.02.2020 yil		2020-yil yanvar oyida
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Jizzax viloyati	779	733	17
Jizzax shahri	200	191	3
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	5	4	-
Baxmal	40	35	
G'allaorol	58	56	1
Sharof Rashidov	201	192	3
Do'stlik	62	59	1
Zomin	73	67	3
Zarbdor	31	31	2
Zafarobod	51	43	4
Mirzacho'l	9	9	-
Paxtakor	12	10	-
Forish	43	41	-
Yangiobod	11	10	-

Oilaviy korxonalar soni
(1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni
(hududlar kesimida 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 42,1 % yoki 315 tasi sanoat, 20,7 % yoki 155 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 14,4 % yoki 108 tasi savdo, 14,3 % yoki 107 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,7 % yoki 5 tasi qurilish, 0,4 % yoki 3 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, 0,1 % yoki 1 tasi tashish va saqlash hamda 7,0 % yoki 52 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining ulushi
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-fevral holatiga, %)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda savdo xizmatlari, eng kami esa tashish va saqlash, axborot va aloqa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni
(hududlar kesimida yanvar oyida, birlikda)

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Jizzax viloyati	17	100,0
Jizzax shahri	3	17,6
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	-	-
Baxmal	-	-
G'allaorol	1	5,9
Sharof Rashidov	3	17,6
Do'stlik	1	5,9
Zomin	3	17,6
Zarbdor	2	11,8
Zafarobod	4	23,6
Mirzacho'l	-	-
Paxtakor	-	-
Forish	-	-
Yangiobod	-	-

2020-yil yanvar oyida 17 ga yaqin oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 50,0 % ga kamroqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Zafarobod (4 ta), Sharof Rashidov (3 ta), Zomin tumanlari (3 ta) va Jizzax shahri (3 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kami G'allaorol (1 ta), Do'stlik (1 ta) hamda Zarbdor (2 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining ulushi
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar oyida, %)



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 41,7 % yoki 8 tasi savdo, 29,4 % yoki 5 tasi sanoat, 11,8 % yoki 2 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 5,9 % yoki 1 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hamda 5,8 % yoki 1 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni


(2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 183 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 55 taga yoki 43,0 % ga o'sgan.

2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra xorijiy kapital ishtirokida 183 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxonalar va tashkilotlarning eng yuqorisi Jizzax shahri (73 ta), Forish (20 ta), G'allaorol (15 ta), Sharof Rashidov (15 ta) va Zomin (15 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Mirzacho'l (2 ta), Zarbdor (2 ta), Do'stlik (4 ta) hamda Baxmal tumanlarida (5 ta) to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni

(1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalarining davlatlar kesimida soni**


(2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 117 tasi qo'shma korxonalar, 66 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar
va xorijiy korxonalar soni**

(2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar ulushi**

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-fevral holatiga ko'ra, %)



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni**

(hududlar kesimida 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Jizzax viloyati	183	117	66
Jizzax shahri	73	53	20
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	8	6	2
Baxmal	5	3	2
G'allaorol	15	10	5
Sharof Rashidov	15	7	8
Do'stlik	4	2	2
Zomin	15	8	7
Zarbdor	2	1	1
Zafarobod	6	1	5
Mirzacho'l	2	-	2
Paxtakor	9	8	1
Forish	20	15	5
Yangiobod	9	3	6

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (yanvar oyida, birlikda)

2020-yil yanvar oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 3 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 taga kamaygan. Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni asosiy qismi Jizzax shahar (1 ta yoki jamidagi ulushi 33,4 %), G'allaorol (1 ta yoki 33,3 %) va Sharof Rashidov tumanlari (1 ta yoki 33,3 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(davlatlar kesimidagi yanvar oyida, birlikda)



Koreya Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida 2 ta, Xitoy Xalq Respublikasi 1 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2020-yil yanvar oyida Afg'oniston Islom Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (1 ta yoki 33,4 %), sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (1 ta yoki 33,3 %) hamda boshqa faoliyat turlarida (1 ta yoki 33,3 %) ni tashkil etgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni
(*iqтisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar oyida, birlikda*)



Jizzax viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni
(*2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda*)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Rossiya Federatsiyasi	40	32	8
Qozog'iston Respublikasi	3	2	1
Ozarbajon Respublikasi	4	2	2
Tojikiston Respublikasi	4	3	1
Turkmaniston Respublikasi	3	-	3
Ukraina Respublikasi	2	-	2
Moldova Respublikasi	1	1	-

Jizzax viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokidagi korxonalarining asosiy ulushi (*jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalariga nisbatan*) Rossiya Federatsiyasi 21,9 %, Ozarbajon Respublikasi 2,2 %, Tojikiston Respublikalarida 2,2 % va Qozog'iston Respublikasi 1,6 % ga to'g'ri kelmoqda.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tuzilishidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat Ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.


Faoliyat ko'rsatmayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Faoliyati tugatilgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan yuridik shaxslarning davlat reestriga yuridik shaxsni tugatilganligi to'g'risidagi yozuv kiritilgandan so'ng bu haqida davlat statistika organlariga ma'lumot taqdim etilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy sayti orqali real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olish imkoniyatiga egalar.

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrnlarni yuritish bo'limi
Tel.: 71 230-83-65 (66)